

SHARQ XALQLARIDA BOSHQARUV MA'NAVIYATI AXLOQIY MASALA SIFATIDA

Shonazarov Jamshid Shuxratovich

f.f.n., dotsent, Shahrisabz davlat pedagogika instituti

SPIRITUALITY OF MANAGEMENT AMONG EASTERN PEOPLES AS AN ETHICAL ISSUE

Shonazarov Jamshid Shukhratovich

PhD, Associate Professor, Shahrisabz State Pedagogical Institute

ДУХОВНОСТЬ УПРАВЛЕНИЯ У НАРОДОВ ВОСТОКА КАК ЭТИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Шоназаров Джамшид Шухратович

Кандидат педагогических наук, доцент,

Шахрисабзский государственный педагогический институт

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'rta Osiyo Sharq xalqlarining davlat va jamiyat boshqaruvi to'g'risidagi qarashlari hamda bu sohada yaratilgan ilmiy-falsafiy ta'limotlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: davlat, jamiyat, boshqaruv, axloq, qadriyat.

Аннотация: В данной статье анализируются взгляды восточных народов Центральной Азии на управление государством и обществом и научно-философские учения, которые они создали в этой области.

Ключевые слова: государство, общество, управление, этика, ценность.

Abstract: this article analyzes the views of the Eastern peoples of Central Asia on the governance of the state and society and the scientific and philosophical teachings that they have created in this area.

Key words: state society, governance, ethics, value.

Sharq xalqlarida boshqaruv ma'naviyati qadimdan insoniy fazilatlar, adolat, halollik va mas'uliyat kabi axloqiy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq holda shakllangan. Davlat va jamiyat boshqaruvida axloqiy tamoyillarni asosiy mezon sifatida e'tirof etish Sharq falsafasining muhim jihatlaridan biridir. Shu bois, Sharq tafakkurida boshqaruv faqat siyosiy jarayon emas, balki ma'naviy-axloqiy masala sifatida talqin etilib, inson kamoloti va jamiyat farovonligini ta'minlashga xizmat qilgan. Xalq og'zaki ijodida ko'proq umumbashariy va umuminsoniy axloqiy qadriyatlarga e'tibor berilgan bo'lib, ularning mohiyati hamda mazmuni turlicha talqin qilingan. Spitamen, Alpomish, To'maris va Shiroq haqidagi dostonlarda vatanparvarlik, xalq va yurt ozodligi uchun fidoyilik ruhi badiiy tarzda tasvirlangan.

“Bu dostonlarni qadimgi yunonlarning Iliada va Odissey dostonlari bilan qiyoslash mumkin” [1, 6-bet]. Ajdodlarimizning qadimgi kitobi “Avesto” diniy-falsafiy merosimizning eng yorqin namunasi bo'lib, unda qadimgi xalqlarimizning davlat va jamiyat boshqaruviga oid axloqiy qadriyatlari yoritib berilgan. “Avesto” zardushtiylikning muqaddas kitobi bo'lganligi sababli, unda bu dinning axloqiy qadriyatlar tizimi o'z ifodasini topgan. Shu bilan birga, kitobda umuminsoniy qadriyatlarga, ularning inson ma'naviyati va amaliy faoliyati uchun ahamiyatiga katta o'rin berilgan. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov shunday degan edi: “Avestoda borliqning yaxlitligi va bir butunligi, inson hayotining tabiat bilan uyg'unligi masalasi odamning ruhiy olamiga chambarchas bog'liq holda ko'rsatilgani ko'p



E-mail:

ishonazarov1981@gmail.com;

<https://orcid.org/0009-0005-4102-3107>

narsani anglatadi. Bu holat insonning ma'naviy dunyosini shakllantirishda atrof-muhit qadim zamonlardan buyon qanday kuchli ta'sir o'tkazib kelganiga yana bir bor e'tiborimizni jalb qiladi" [2, 32-bet]. Davlat va jamiyat boshqaruvida ijtimoiy tenglik, adolat mezon va axloqiy qadriyatlar ustuvorligini ta'minlash masalasi "Moniy davri" (milodiy III–IV asrlar; asoschisi Moniy 216–276 yillarda yashagan) falsafiy-ilohiy ta'limotida ham yaqqol ifodalangan. Moniyning fikricha, ikki dunyo — "zulmat va ziyo dunyosi" mavjud: birinchisida adolatsizlik, zo'ravonlik hukmron bo'lsa, ikkinchisi barqaror, yemirilmaydigan, doimiy axloqiy qadriyatlar dunyosidir.

Ma'lumki, Sharqda milliy axloqiy qadriyatlarga, ayniqsa, davlat hukmdorining axloqiy fazilatlariga alohida e'tibor qaratilgan va bu borada ulkan nazariy meros yaratilgan. Biroq masalaning murakkab jihati shundaki, axloqiy qadriyatlarni davlatning siyosiy faoliyati bilan uyg'unlashtirish har doim ham amalga oshmagan. Axloqiy qadriyatlarga asoslanmagan davlat siyosati ko'plab hukmdorlarni turli ziddiyatlar girdobiga tortgan, natijada el-yurt parokanda bo'lgan, o'zaro qon to'kish va nizolar avj olgan [3,6-bet]. Ana shunday bir sharoitda, jamiyatdan zulm va zo'ravonlik ildizlarini sug'urib tashlash g'oyasi VI asrda yashagan Mazdak (milodiy 451–529-yillar; 529-yilda qatl qilingan) ta'limotida ham yaqqol ko'zga tashlanadi.

Imom G'azzoliy o'zining "Dastur ul-muluk" asarida shunday deydi:

"Yaxshi vazir — podshohning eng yaqin yordamchisi, sirdoshidir. Mamlakatning ichki va tashqi ishlari, viloyatlar osoyishtaligi hamda xazinaning obodligi vazirga bog'liq. Podshohlikning zeb-u ziynati, qudrat va shukuhi ham aynan undan kelib chiqadi" [4, 86-bet].

Ta'kidlash lozimki, davlat boshqaruvining rivojida axloqiy qadriyatlarning tizimga singdirilishi va bu orqali samarali natijalarga erishilgan siyosiy jarayonlar haqida ajdodlarimiz yaratgan ko'plab tarixiy manbalarda so'z yuritiladi. Jumladan, quyidagi asarlar shu yo'nalishda muhim manbalar sirasiga kiradi:

- "Shohnoma" – Firdavsiy,
- "Qutadg'u bilig" – Yusuf Xos Hojib,
- "Dastur ul-muluk" – Imom G'azzoliy,
- "Kitob ul-vuzaro" – Xilol,
- "Irshod" – Yoqut,

- "Kitob ud-diyorot" – Shabushtiy,
- "Siyosatnoma" – Nizomul-mulk,
- "Qobusnoma" – Kaykovus,
- "Dastur ul-vuzaro" – Xondamir,
- "Axloqi Muhsiniy" va "Anvori Suhayliy" – Koshifiy.

Mazkur manbalar Sharq siyosiy tafakkurining eng yuksak yutuqlaridan bo'lib, ular orqali davlat boshqaruvida axloq, adolat va mas'uliyat tamoyillarining naqadar chuqur ildiz otgani yaqqol namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, "vazir" so'zi arabcha "vizr" so'zidan olingan bo'lib, "vizr" yuk, og'irlik degan ma'nolarni anglatadi. ("Vazara" – yukni ko'tarib yurmoq, katta mas'uliyatni o'z zimmasiga olmoq demakdir). "Vizr" so'zi gunoh ma'nosini ham bildiradi. Shu ikki ma'noni nazarda tutgan Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida quyidagi so'zlarni yozgan edi:

"Vazir "vizr"dan mushtaqdur va bu fe'l aning zotiga al-haq va al-yaqdur" ya'ni "vazir so'zi vizrdan kelib chiqqan bo'lib, bu fe'l (ya'ni yuk ko'tarish, gunohni o'z zimmasiga olish) uning tabiatiga eng to'g'ri va eng loyiq ta'rifdir" [5, 13-bet]. Vazir podshoning yaqin maslahatchisi, sirdoshi va tadbirkor amaliyotchisi bo'lishi kerak edi. Alisher Navoiy eng oqil va donishmand vazir sifatida Sulaymon podshoning donishmand vaziri Osofni tilga oladi. Darhaqiqat, Osofning zakovati va donoligi haqida ko'plab hikoyatlar va rivoyatlar mavjud.

Umuman olganda, Sharqda dunyoga mashhur bo'lgan vazirlar juda ko'p bo'lgan. Vazirlik lavozimlari va ularga aloqador Devon (kanselyariya) tizimi bir kunda shakllanmagan. Dastlabki davrlarda vazirlar ko'proq podshoning mahromi va maslahatchisi sifatida faoliyat yuritgan. Osof, Homon, Buzurgmehring singari shaxslar asosan hikmatli fikrlar aytish, maslahat berish, podshoga nasihat qilish bilan shug'ullanganlar. Ular davlat siyosatiga aralashgan bo'lsalar-da, doimiy ravishda aniq ma'muriy lavozim egasi bo'lmaganlar. Masalan, Firdavsiy "Shohnoma" asarida Buzurgmehring (Firdavsiy uni "Buzrajmehring" deb ataydi) obrazini o'ta dono, bilimli inson sifatida tasvirlaydi. Vazirlarning ishini nazorat qilish, tabiiyki, podsho (yoki xalifa) zimmasida bo'lgan. Vazirlar muntazam ravishda o'z faoliyati haqida hukmdorga hisobot berib turgan. Shu bois podsho

va vazir o'rtasidagi munosabat davlatning barqarorligi va rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etgan. Ma'lumki, Amir Temur barcha davlat amaldorlarini, jumladan, vazirlarni ham "xavfu rajo" (ya'ni qo'rquv va umid) o'rtasida tutgan. Bu tamoyil podshoh va vazir o'rtasidagi muvozanatni saqlashda muhim rol o'ynagan. Mazkur mavzuga oid fikrlar va tahlillar o'sha davrda yaratilgan Kaykovusning "Qobusnoma"si hamda Muhammad G'azzoliyning "Nasihatul-muluk" ("Podshohlarga nasihat") nomli asarlarida ham o'z aksini topgan. Boshqaruv tizimi zimmasida jamiyatni buzilishlar, og'ishlar va illatlardan ogohlantirish, unga to'g'ri yo'lni ko'rsatish hamda kelajakni oldindan ko'ra bilish vazifasi yotadi. Ana shundagina jamiyat, boshqaruv tizimi va rahbar o'rtasidagi uyg'unlik qaror topadi; ya'ni har bir inson jamiyat boshqaruvida o'z o'rniga ega bo'ladi. Forobiy shuningdek, boshqaruv turlari va ularning soni qonunlarning soni bilan bevosita bog'liq ekanini ta'kidlaydi. Chunki hokimiyat — bu qonunlarga bo'ysunuvchi, ulardan hosil bo'luvchi va ularga asoslanadigan kuchdir. Shu bois boshqaruvning sifati qonunlarning miqdori va ularning axloqiy qadrlanish darajasi bilan belgilanadi. Demak, yaxshi boshqaruv — yaxshi qonunlarga, yomon boshqaruv — yomon qonunlarga, yetuk boshqaruv esa — yetuk qonunlarga tayanadi. Forobiyning bu mulohazalari nafaqat o'z davri uchun, balki zamonaviy davlat boshqaruvi tamoyillari uchun ham universal ahamiyatga ega bo'lib, bugungi axloqiy siyosat va davlat mas'uliyati g'oyalari bilan bevosita uyg'unlashadi. O'rta asrlarda davlat va jamiyat boshqaruvida siyosiy qadriyatlar talqinida Amir Temurning qarashlari alohida o'rin tutadi. Shuningdek, umumbashariy qadriyatlarning ilmiy tahlilida buyuk alloma Mirzo Ulug'bekning fikrlari ham g'oyat muhim ahamiyatga ega. Podshohlar, hukmdorlar va siyosiy arboblardan talab etiladigan axloq-odob mezonlari, davlat va jamiyatni boshqarishdagi siyosat yuritish san'ati haqida "Temur tuzuklari" asarida keng yoritilgan. Bu asarda ijtimoiy-siyosiy qadriyatlarga nihoyatda katta e'tibor qaratilgan bo'lib, u Sharq va G'arbda mashhur asarlardan biri sifatida ko'p marta nashr etilgan. "Temur tuzuklari"da siyosatdonning yurish-turishi, xalq va lashkar bilan muomala madaniyati, davlat arkonlari va vazirlar bilan munosabatda tutadigan mezonlari, shuningdek,

davlatni adolat asosida boshqarish tamoyillari o'sha davrning siyosiy-falsafiy tafakkuri asosida bayon etilgan. Amir Temur tariximizda buyuk davlat arbobi, mohir siyosatdon va adolatparvar hukmdor sifatida yuksak o'rin egallaydi. Uning davlatni boshqarish, adolat o'rnatish, lashkar tuzish, xalq manfaatini himoya qilish borasidagi o'git va nasihatlari nafaqat o'z davri, balki keyingi asrlar siyosiy rahbarlari uchun ham amaliy qo'llanma bo'lib xizmat qilgan.

Husayn Voiz Koshifiy o'z asarlarida vazir shaxsining davlat boshqaruvidagi o'rnini alohida ta'kidlab, shunday yozadi:

"Vazirlar agar yaxshi xislatlar sohibi bo'lsalar, saltanat binosining mustahkamligiga va mamlakat ishlarining intizomiga sabab bo'ladilar" [6, 51-bet]. Amir Temurning "Tuzuklar" asarida vazirlik lavozimi nihoyatda yuksak baholanadi — u amirlik mansabi bilan teng, ba'zan esa undan ham yuqori maqomda talqin etiladi. Asarning ikki bobi bevosita vazirlik faoliyati va mas'uliyatini belgilashga bag'ishlangan bo'lib, ular "Vazir tutish tuzugi", "Vazirning xizmat qilish tuzugi" deb nomlanadi [7, 74-bet]. Bundan tashqari, "Temur tuzuklari"ning boshqa boblarida ham beklar, amirlar, qozilar, muftilar, muhtasib, sadr va qozikalon lavozimlari bilan bir qatorda vazir to'g'risidagi qarashlar bayon etilgan. Bu asar o'rta asr Sharq siyosiy tafakkurining yuksak namunasi bo'lib, unda davlat boshqaruvida axloq, adolat, mas'uliyat va fidoyilik tamoyillari markaziy o'rinni egallaydi. Amir Temurning qarashlari keyinchalik nafaqat Movarounnahr, balki butun musulmon Sharqida siyosiy etika va boshqaruv madaniyatining shakllanishiga chuqur ta'sir ko'rsatgan.

Xulosa o'rnida quyidagilarni aytish mumkin:

Birinchidan, falsafiy va axloqiy ta'limotlarda, xususan, Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ma'rifiy asarlarida ilgari surilgan g'oyalarni chuqur o'rganish zarurati tobora ortib bormoqda. Turli xalqlarning va davlatlarning davlat boshqaruvi tajribalaridan keng foydalanish bugungi kunda rivojlanish sari intilayotgan ijtimoiy-falsafiy tafakkur tizimini shakllantirish va tahlil qilish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. **Ikkinchidan**, davlat xizmatchisi faoliyatida axloqiy qadriyatlarining siyosiy qadriyatlar bilan

uyg'unlashuvi uzoq davom etadigan, murakkab va ziddiyatli jarayon hisoblanadi. Chunki davlat xizmatida faoliyat yurituvchi shaxslarning siyosiy va axloqiy madaniyati o'zaro mutanosib bo'lishi zarur. Bu borada olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, masala axloqning siyosiylashuvida emas, balki siyosatning axloqqa bo'ysunishida ifodalanishi kerak. **Uchinchidan**, Sharq mutafakkirlari tomonidan ishlab chiqilgan davlat va jamiyat boshqaruvini demokratlashtirish, axloq, ma'naviyat va siyosat tamoyillariga oid ta'limotlarni yagona tizimga keltirish masalasi yuksak ma'naviy meros sifatida e'tirof etiladi. Ana shu meros asosida milliy davlat boshqaruv tizimini takomillashtirish va uni chuqur anglashga qaratilgan ma'naviy-axloqiy hamda ijtimoiy-siyosiy bilimlarni shakllantirish bugungi kun uchun katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. **To'rtinchidan**, Sharq xalqlarida boshqaruv ma'naviyatini shakllantirish har doim ustuvor axloqiy masalalardan biri bo'lib kelgan. Shu sababli, Sharqda boshqaruvning tabiati, kelib chiqishi, uning jamiyatdagi ijtimoiy-axloqiy faoliyati masalalariga doimo alohida e'tibor

qaratilgan. Shu nuqtayi nazardan, bu mavzuga oid asarlarni siyosiy-falsafiy fanlar dasturlariga kiritish va ularning mohiyatini yoshlar dunyoqarashiga singdirish milliy-mafkuraviy vazifalardan biri sifatida qaralishi lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan. – Toshkent: O'zbekiston, 1995. – 6 b.
2. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 32 b.
3. Alimardonov T. Amir Temur davlat boshqaruvining falsafiy-axloqiy asoslari. – Toshkent, 2007. – 6 b.
4. G'azzoliy M. Nasihat ul-muluk. – Dushanbe: Irfon, 1993. – 86 b.
5. Navoiy A. Asarlar. XIII jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1966. – 13 b.
6. Voiz Koshifiy H. Axloqi muhsiniy. – Dushanbe: Adib nashriyoti, 1991. – 151 b.

